

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

CHANGES IN THE SPIRITUAL AND MORAL VIEWS OF UZBEK YOUTH IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Ahmedova Dilrabo Sa'dullayevna,

Senior Lecturer, Department of History and Social Sciences

University of Economics and Pedagogy

E-mail: dilliaxmedova@gmail.com

Abstract. This article analyzes the impact of globalization on the spiritual and moral views of Uzbek youth. The spread of information technologies, internet culture, mass culture, and increased intercultural communication has led to both positive and negative transformations in young people's value systems. The study explores youth attitudes toward national values, processes of spiritual identity formation, and the emergence of new worldviews shaped by global trends. The article also provides recommendations for strengthening spiritual resilience and supporting the moral development of youth in the context of globalization.

Keywords: globalization, youth, spirituality, morality, values, identity, mass culture, digital environment, social change.

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY- AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR

Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna,

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashtirish jarayonlarining o'zbek yoshlarining ma'naviy-axloqiy qarashlariga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari, internet madaniyati, ommaviy madaniyatning kirib kelishi hamda madaniyatlararo muloqotning kuchayishi yoshlarda ijobiy va salbiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotda yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati, ma'naviy identifikatsiya jarayonlari, zamonaviy global tendensiyalar ta'sirida shakllanayotgan yangi dunyoqarash xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, globallashtirish sharoitida ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: globallashtirish, yoshlar, ma'naviyat, axloq, qadriyatlar, identitet, ommaviy madaniyat, raqamli muhit, ijtimoiy o'zgarishlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N30>

XXI asrning asosiy jarayonlaridan biri bo'lgan globallashtirish insoniyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axloqiy sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston ham jahon hamjamiyatining faol a'zosi sifatida ushbu jarayonlardan chetda qolmayapti. Ayniqsa, global jarayonlar ta'siri eng tez seziladigan qatlam — bu yoshlar hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar rivoji, internetning ommalashuvi, g'oyaviy-mafkuraviy axborot oqimlarining keskin ortishi yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy xulq-atvorida sifat jihatdan yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda.

Globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblangan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yoshlarning dunyoqarashida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ochiq axborot makonida voyaga yetayotgan bugungi avlod turli xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, ijtimoiy qadriyatlari bilan bimalol tanishmoqda, global maydondagi yangiliklarni tezda qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Natijada yoshlar orasida umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, keng fikrlash, tolerantlik, erkin tafakkur, innovatsion g'oyalarga intilish va o'zini namoyon etish ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirib, jamiyatning modernizatsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq globallashuvning bunday imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning ma'lum salbiy jihatlari ham mavjud. Xususan, ommaviy madaniyatning cheksiz kengayishi, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalarida tarqalayotgan nazoratsiz axborot oqimi yoshlarning ma'naviy immunitetiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bunday kontentlar iste'molchilik kayfiyatining kuchayishiga, milliy an'ana va qadriyatlarga nisbatan befarqlikning ortishiga, axloqiy me'yorlarning nisbiylashuviga, individualizmning kuchayishiga hamda ruhiy beqarorlik, stress va depressiv holatlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ayrim yoshlar esa ommaviy madaniyatni hayotning asosiy mezon sifatida qabul qilib, milliy qadriyatlar bilan o'rtadagi muvozanatni yo'qotib qo'ymoqda.

Shu bois globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon birinchi navbatda milliy qadriyatlarni zamonaviy talablarga mos shaklda targ'ib qilishni talab etadi. Milliy madaniyat, tarix, urf-odatlar va ma'naviy merosni yoshlar ongiga zamonaviy kommunikatsion vositalar orqali singdirish ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlik va media madaniyatni rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish, zararli axborotni tanib olish va undan himoyalanih ko'nikmalarini oshirish bugungi axborot makonida eng zarur kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash ham katta ahamiyatga ega. Bu borada mahalla, oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari va yoshlar tashkilotlarining o'zaro hamkorligi ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydi.

Yana bir muhim jihat — milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida uyg'un muvozanatni shakllantirishdir. Yoshlar globallashuv jarayonida o'z milliy identitetini saqlab qolishi, shu bilan birga dunyoga ochiq, fikran erkin va raqobatbardosh bo'lishi lozim.

Umuman olganda, globallashuvning o'zbek yoshlarining ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'siri ko'p qirrali va murakkab bo'lib, uni to'g'ri boshqarish orqali jamiyat taraqqiyoti uchun ulkan ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Globallashuv, yoshlar ma'naviyati va axloqiy qadriyatlar masalalari xalqaro hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Mazkur bo'limda ushbu yo'nalish bo'yicha yetakchi olimlar qarashlari, ilmiy yondashuvlar va konseptual asoslar tahlil qilinadi. Globallashuv tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlanadi [1, 45-b.].

M.Castells (1996) globallashuvni "axborot jamiyatining yangi ijtimoiy tuzilmasi" sifatida talqin qilib, informatsion oqimlarning kuchayishi inson ongida yangi kognitiv jarayonlarni shakllantirishini ta'kidlaydi [2, 32-b.].

Z.Bauman (1998) esa globallashuvni “insonning ijtimoiy va axloqiy identifikatsiyasiga bevosita ta’sir qiluvchi omil” deb baholaydi. Unga ko’ra, globallashuv shaxs ongida barqarorlikdan ko’ra o’zgaruvchanlikni kuchaytiradi [3, 24-b.].

Ushbu yondashuvlar yoshlar ma’naviy-axloqiy qarashlaridagi dinamik o’zgarishlarni tushunish uchun nazariy asos yaratadi.

Yoshlar ma’naviyati masalasi milliy ilmiy doiralarda ham muhim o’rin tutadi. I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” asarida ma’naviy tarbiyaning milliy taraqqiyotdagi o’rni chuqur yoritilib, ayniqsa global ta’sirlar sharoitida ma’naviy immunitetni mustahkamlash zarurligi ta’kidlanadi [4, 51-b.].

Psixologiya va sotsiologiya sohalarida K.G. Jung, E.Fromm, P.Sorokin kabi olimlar shaxsning ma’naviy qarashlarini ijtimoiy muhit bilan bog’liq holda tahlil qilib, yoshlar ongining shakllanishida kommunikatsiya, tarbiya va ijtimoiy tajribaning yetakchi o’ringa ega ekanini qayd etadilar [5, 103-b.].

O’zbekistonlik olimlardan A.Ahrorov, O.Musurmonova, N.Jo’raevlar yoshlar ma’naviyatiga oid tadqiqotlarida global axborot makonining yoshlar ongiga ijobiy va salbiy ta’sir mexanizmlarini chuqur o’rganib, milliy identitetni asrashning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqqanlar [6, 4-b.].

Ko’plab xalqaro tadqiqotchilar globallashuvning ikki qirrali ta’sirga ega ekanini ta’kidlaydi. R.Robertson (2000) globallashuvni “mahalliy va global o’zaro ta’sirining sinergetik jarayoni” deb talqin etadi. Uning fikricha, global va mahalliy qadriyatlar to’qnashuvi yangi hibrid madaniy shakllarni yuzaga keltiradi [7, 89-b.].

UNESCO tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda (2018, 2022) esa ommaviy madaniyat, internet va raqamli kommunikatsiyalar yoshlar axloqiy qarashlarida keskin o’zgarishlar keltirib chiqarayotgani, media savodxonlikning yetishmasligi ularni manipulyativ ta’sirlarga ochiq qilib qo’yayotgani qayd etilgan. Shuningdek, sotsiolog A.Tourain shaxsiy erkinlikning ortishi individualizmni kuchaytirishini, bu esa milliy madaniyatga sodiqlik va ijtimoiy birdamlik darajasini pasaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Milliy o’zlik va global madaniyat munosabati masalasi ko’plab mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o’rganilgan. Xususan, O.Musurmonova yoshlar dunyoqarashida milliy qadriyatlarning o’rni, ularning globallashuv sharoitida qayta talqin qilinishi haqida batafsil ilmiy xulosalar beradi. E.Vohidov, A.Qodiriy, A.Sa’di asarlarida ham ma’naviyat, axloqiy poklik, milliy o’zlikni asrash g’oyalari bugungi tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos bo’lib xizmat qiladi [8, 63-b.].

Zamonaviy ilmiy manbalarda raqamli transformatsiya yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir qiluvchi omil sifatida baholanadi. H.Schiller va N.Postman internetdagi cheksiz axborot oqimi shaxsning axloqiy barqarorligiga xavf tug’dirishi, axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish esa muhim ijtimoiy vazifa ekanini ta’kidlaydi. Ta’lim bo’yicha tadqiqotlar raqamli savodxonlikning yuqori darajasi yoshlarni zararli kontentdan himoya qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda ma’naviy qarashlarni barqarorlashtirishda muhim rol o’ynashini ko’rsatadi.

Globallashuv jarayonlari o’zbek yoshlarining ma’naviy-axloqiy qarashlariga murakkab va ko’p qirrali ta’sir ko’rsatmoqda. Bir tomondan, axborot texnologiyalari orqali dunyoqarash kengayib, intellektual salohiyat ortmoqda; boshqa tomondan, ommaviy madaniyat va chetdan kirib kelayotgan begona mafkuraviy oqimlar ma’naviy muvozanatga tahdid tug’dirmoqda.

Shuning uchun yoshlar ongida milliy qadriyatlar asosida mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish, raqamli savodxonlikni oshirish, sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar uyg'un bo'lgandagina yoshlar globallashuv jarayonida o'zligini yo'qotmagan holda zamon bilan hamnafas bo'lib ulg'ayadi.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi

Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida zamonaviy raqamli platformalardan samarali foydalanish. Globallashuv sharoitida axborot oqimi kuchayib borayotgan bir paytda, yoshlarning ma'naviy tarbiyasini mustahkamlash uchun milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi mobil ilovalar, videodarslar, podkastlar, animatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlarga mos formatdagi kontentlar yaratish zarur.

Ommaviy madaniyatning salbiy ta'siriga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish. Yoshlar orasida tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida maxsus kurslar va treninglar tashkil etish tavsiya etiladi. Bu yoshlarning zararli kontentlarni ajrata bilish ko'nikmalarini oshiradi.

Milliy identitet va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini mustahkamlash. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi zamonaviy talablarga mos holda yoshlar ongiga singdirilishi lozim. Buning uchun milliy qadriyatlarni global madaniyat bilan uyg'unlashtirgan holda targ'ib etuvchi loyihalar — madaniy festival, tanlov, ochiq muloqotlar —ni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Mahalla, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish. Ma'naviy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lgani sababli, mahalla, oila va ta'lim muassasalari o'rtasida muntazam seminar, suhbatlar, ma'naviy-ma'rifiy kechalar tashkil etish orqali muvofiqlashtirilgan tarbiya tizimini yaratish muhimdir.

Yoshlar uchun sog'lom psixologik muhitni ta'minlash. Raqamli makon bosimi, axborot ortig'i va individualizmning kuchayishi sababli yoshlar ruhiy barqarorligini qo'llab-quvvatlash zarur. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni kuchaytirish, stressni boshqarish bo'yicha treninglar va maslahat markazlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

O'quv dasturlarida ma'naviyat va axloq mavzusini modernizatsiya qilish. Ma'naviyat fanini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish, global ijtimoiy jarayonlar, medialashgan jamiyat, axborot madaniyati, shaxsning identiteti kabi mavzular bilan boyitish zarur.

Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faollikka keng jalb etish. O'zgaruvchan global makonda yoshlarning faolligi ma'naviy o'sishi bilan ham bog'liq. Shu bois, ularni jamiyat rivojiga qaratilgan loyihalar, volontyorlik faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy tashabbuslarga keng jalb qilish taklif etiladi.

Milliy va global madaniyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish. Globallashuvning ma'naviy jarayonlarga ta'siri bo'yicha muntazam monitoring, statistik tahlillar va ilmiy izlanishlar olib borish tavsiya qilinadi. Bu siyosiy va ma'naviy dasturlarni yangilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Internet va media-holatni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarni takomillashtirish. Yoshlar ongiga zarar yetkazuvchi kontentni cheklash, zararli axborot tarqatadigan platformalarga qarshi samarali nazorat tizimini yaratish, shu bilan birga foydali, ma'rifiy kontentlarni qo'llab-quvvatlash kerak.

Yoshlar uchun ma'naviy yetakchilar maktabini yaratish. Turli sohalarda faol, ijobiy fikrlaydigan yoshlar orasidan ma'naviy yetakchilarni tayyorlash, ularni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi loyihalarda ishtirok etishga rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Globallashuv jarayonlari o'zbek yoshlarining ma'naviy-axloqiy qarashlarida murakkab, ko'p qirrali jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet madaniyati va ochiq kommunikatsion makon yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularda innovatsion fikrlash, tolerantlik, erkin tafakkur va global qadriyatlarga nisbatan qiziqishning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ommaviy madaniyatning cheklanmagan ta'siri, ijtimoiy tarmoqlardagi nazoratsiz kontent, iste'molchilik kayfiyatining kuchayishi va individualizmning ortishi yoshlar ma'naviy-axloqiy barqarorligiga tahdid solayotgan salbiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy identitetning shakllanishi yangi bosqichga ko'tarilgan. Milliy qadriyatlarga sodiqlik, tarixiy merosga hurmat va o'zlikni anglash jarayonlari global madaniy oqimlar bilan uyg'unlashuv orqali yangicha mazmun kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash uchun zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati tobora kuchaymoqda.

Umuman olganda, globallashuvning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning salbiy oqibatlarini yumshatish va yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlash, raqamli axborot oqimida ongni boshqarish va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Bauman, Z. *Globalizatsiya: Insoniy oqibatlar*. — London: Polity Press, 1998. — 180 b.
2. Castells, M. *Axborot asri: Iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat*. — Oksford: Blackwell Publishers, 1996. — 485 b.
3. Robertson, R. *Globalizatsiya: Jamiyat, madaniyat va dunyo tartibi*. — Nyu-York: Sage Publications, 2000. — 260 b.
4. Karimov, I.A. *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
5. Musurmonova, O. *Ma'naviy tarbiya va yoshlar dunyoqarashi*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2015. — 220 b.
6. UNESCO. *Global Youth Development Report*. — Parij: UNESCO Press, 2022. — 112 b.
7. Sorokin, P.A. *Inson, fuqarolik va axloqiy qadriyatlar evolyutsiyasi*. — Boston: Beacon Press, 1970. — 310 b.
8. Jo'raev, N. *Globallashuv va ma'naviy xavfsizlik*. — Toshkent: Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, 2019. — 154 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).